


## 102. Sonli nur yordamida masalalar yechish

**Yondosh mavzu:**  
o'yinlar.

To'g'ri chiziqlar, kesmalar,  
nurlar.



1. Umida sakrog'ichda sakrayapti. U bir sekundda 2 metrni yugurib o'tadi. Umida 2 sekundda necha metrni yugurib o'tadi? 3 sekundda-chi? 5 sekundda-chi? U 22 metrni qancha vaqtda yugurib o'tadi?



2. Rasmlarga qarab, tenglamalar tuzing. Bu tenglamalarni qanday yechish mumkinligini ayting. Tenglamalardan birini tekshirish bilan yeching.

$$\begin{array}{c} 29\ 331 \\ \hphantom{29\ } \swarrow \\ x \quad 183\ 893 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 49\ 520 \\ \hphantom{49\ } \swarrow \\ 31\ 125 \quad x \end{array}$$

$$\begin{array}{c} m \\ \hphantom{m} \swarrow \\ 15\ 193 \quad 148\ 038 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} t \\ \hphantom{t} \swarrow \\ 459\ 224 \quad 546\ 129 \end{array}$$

3. Sonli nur yasang. Uning bir bo'linishi 2 katak bo'lsin. Bu o'qda  $A(7)$  nuqtaning harakatini quyidagi algoritm bo'yicha chizing:

$2 \rightarrow, 1 \leftarrow, 3 \rightarrow, 3 \rightarrow, 7 \leftarrow, 1 \leftarrow, 3 \leftarrow, 6 \rightarrow, 1 \leftarrow.$

Buni sonli ifoda ko'rinishida yozing.

## 102. Sonli nur yordamida masalalar yechish




4. Umida, Madina, Jasur, Akmal va Aziza o'rindiqda o'tirishibdi. Umida Madinadan chap tomonda, Azizadan o'ng tomonda o'tiribdi. Akmal Azizaning ham, Umidaning ham, Jasurning ham yonida emas. Jasur bilan Aziza ham yonma-yon emas. Bu bolalar chapdan hisoblaganda qanday tartibda o'tirishibdi?



5. Ariq bo'yida oltita daraxt – majnuntol, chinor, akatsiya, terak, archa va zarang o'sadi. Agar akatsiya chinordan pastroq, majnuntol archadan balandroq, zarang terakdan pastroq, majnuntol akatsiyadan pastroq, zarang chinordan balandroq bo'lsa, eng baland va eng past bo'yli daraxt qaysi?



6. Chizmadagi har bir katakka amalda  $1m^2$  maydon yuzi to'g'ri keladi. Aziza hovlidagi asfaltga bir nechta shakl chizdi. Paletka yordamida bu shakllarning amaldagi yuzini toping.



7. Bu sonlarni ular qiymatlarining kamayib borishi tartibida joylashtiring.

308732

319475

3058285

314740

382004

300999

540039

## 102. Sonli nur yordamida masalalar yechish



8. Bu yerda qanday sonlar yozilgan? Ularni o'sib borish tartibida yozing.



9. Aziza dugonalariga matematik boshqotirma aytyapti. U 8391276540 sonini yozib, shunday dedi: "Oldin bu sondan shunday 5 ta raqamni o'chiringki, iloji boricha eng katta son hosil bo'lsin. Keyin esa shunday 5 ta raqamni o'chiringki, iloji boricha eng kichik son hosil bo'lsin".  
Bu sonlar ayirmasini toping.



- 10.** Hisoblang. Har bir ustundagi misollarda qanday umumiylikni ko'rish mumkin?

$$825 + 184 + 175$$

$$900 - 134 - 266$$

$$(634 + 278) - 178$$

$$414 + 271 + 186$$

$$745 - (139 + 145)$$

$$(255 + 286) - 155$$

$$233 + 129 + 367$$

$$528 - (195 - 228)$$

$$(341 + 299) - 141$$



- #### **11. Masalani to'g'ri chiziq yordamida yeching.**

Hayvonlarni taroziga tortishgan edi, jirafa tuyadan og'irroq, tuya yo'lbarsdan og'irroq, qoplon esa yo'lbarsdan yengilroq chiqdi. Bu hayvonlarning nomlarini ular vaznining ortib borishi tartibida yozing.